



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

3/2024

E-ISSN 2181-1466




9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



3/2024

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**  
**2024, № 3, mart**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bekova Nazora Jo'rayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Xolliyev Askar Ergashovich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Artikova Hafiza To'ymurodovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Hayitov Shavkat Ahmadovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbonova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Ixtiyarova Gulnora Akmalovna**, kimyo fanlari doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mirzayev Shavkat Mustaqimovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Samiyev Kamoliddin A'zamovich**, texnika fanlari doktori, dotsent

**Esanov Husniddin Qurbonovich**, biologiya fanlari doktori, dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, professor

**Jumayev Jura**, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Klichev Qybek Abdurasulovich**, tarix fanlari doktori, dotsent

**G'aybulayeva Nafisa Izzatullayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA \*\*\* СОДЕРЖАНИЕ \*\*\* CONTENTS

**TILSHUNOSLIK \*\*\* LINGUISTICS \*\*\* ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

<b>Abdazova A.R.</b>	The features of the use of english environmental terms in the media	<b>3</b>
<b>Batirkhanova M.O.</b>	Somatik frazeologik birliklar tahlili va ularning o'rganilish tarixi	<b>9</b>
<b>Sobirova D.R.</b>	Reklama matnlarining gender xususiyatlari (tibbiyotga oid reklamalar misolida)	<b>15</b>
<b>Sadullayeva G.I.</b>	Enhancing listening comprehension: strategies, challenges and a comprehensive methodology for language learners	<b>17</b>
<b>Asadov T.H., Bakirova N.H.</b>	Ayrim etnofrazemalarning lingvokulturologik tadqiqi (o'zbek, rus, turk tillari misolida)	<b>26</b>
<b>Eshquvvatova G.N., Urinbayeva D.B.</b>	Stylistic features of proverbs in internet texts	<b>31</b>
<b>Hojiyeva M.G'.</b>	Integrating language and content: strategies and challenges in content-based language instruction	<b>36</b>
<b>Khabibova M.N.</b>	Biografik asarlardagi epistolyar matnlarning o'rni va ularning pragmatik xususiyatlar	<b>41</b>
<b>Mahmudova D.M.</b>	Building a comprehensive bilingual synchronous corpus: principles and practices	<b>45</b>
<b>Narzullayeva D.B.</b>	Qur'oni Karim leksik konfiguratsiyalari: Ka'ba toponimmi yoxud teonim?	<b>50</b>
<b>Sadikov E.T.</b>	Iltifot va inkor mazmunidagi nutq aktlarining tasviriy-ifodaviy atributlari	<b>55</b>
<b>Pardayev S.Sh.</b>	Globalashuv davrida madaniyatlararo muloqot tizimidagi madaniy o'ziga xoslik	<b>60</b>
<b>Mahmudova D.M.</b>	Significance and development of linguistic corpora in Uzbekistan	<b>66</b>
<b>Safoyeva S.N.</b>	Pragmatic marker: "so" and its role in modern oral discourse	<b>70</b>
<b>Turg'unboyeva D.A.</b>	Comparative pragmatics: politeness strategies in uzbek and english languages	<b>75</b>
<b>Xolova M.B.</b>	Tushuncha madaniy kodning shakllangan birligi sifatida	<b>81</b>
<b>Xusenova M.O'.</b>	Termin va terminologiya xususida	<b>85</b>
<b>Ziyayeva D.A.</b>	Paradigmatic analysis of speech verbs	<b>89</b>
<b>Zokirova N.S.</b>	The concept of "linguistic picture of the world" in translation	<b>94</b>
<b>Давлатова М.Х.</b>	Встречение английских глаголов-предикатов в функционально-семантическом поле	<b>98</b>
<b>Махмудова Ю.А.</b>	Лингвокультурные особенности в контексте социолингвистического анализа произведения «Шайтанат»	<b>104</b>
<b>Gudgina V.A., Rustamova N.Sh.</b>	The phraseological specificity of V.Shukshin's idiostyle in fiction: an analysis of interconnections and functional features	<b>109</b>
<b>Subxonqulov U.T., Adizova F.M.</b>	So'zlarni lingvistik tahlil qilish jarayoni uchun ayrim algoritmlarining qiyosiy tahlili	<b>114</b>
<b>Heydarova N.A.</b>	"Past", "present" and "future" as temporal adjectives	<b>119</b>
<b>Norova M.F.</b>	Phraseological dialectisms in english literary works	<b>123</b>
<b>Zeynalova K.</b>	The use of some national-cultural realities in the english language, their etymology and ways of their borrowings	<b>128</b>
<b>Karimova R.</b>	Pragmatic and conceptual aspects of idioms in the discourse of the british and american press	<b>134</b>
<b>Yokubova Sh.Y.</b>	Fe'lli birikmalarning nutqiy voqelanishi	<b>138</b>
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Hayitov Sh.A., Qudratova K.H.</b>	So'z va soz sehri	<b>142</b>



**QUR'ONI KARIM LEKSIK KONFIGURATSIYALARI:  
KA'BA TOPONIMMI YOXUD TEONIM?**

*Narzullayeva Dilfuza Bafoyevna,  
Buxoro davlat universiteti fransuz filologiyasi kafedrası o'qituvchisi  
[d.b.narzullayeva@buxdu.uz](mailto:d.b.narzullayeva@buxdu.uz)*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Qur'oni Karim teonimlari, ularning tilshunoslikdagi o'rni va aynan Ka'ba muqaddas qadamjoyning teonimlar yoki toponimlar sarasiga kirishi haqida o'rganilgan. Ushbu leksemani tahlil qilishda Muqaddas Qur'oni Karim oyatlaridan o'zbek va fransuz tillarida misollar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* teonimlar, Ka'ba, toponimlar, Qur'oni Karim, leksemalar, lingvopragmatika, nutq konfiguratsiyasi, folklor, badiiy uslub.

**ЛЕКСИЧЕСКИЕ КОНФИГУРАЦИИ КОРАНА:  
КААБА ТОПОНИМ ИЛИ ТЕОНИМ?**

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются теонимы Священного Корана, их место в лингвистике, а также вхождение Каабы в список теонимов или топонимов святого места. При анализе данной лексемы приводятся примеры из аятов Священного Корана на узбекском и французском языках.

*Ключевые слова:* теонимы, Кааба, топонимы, Священный Коран, лексемы, лингвопрагматика, речевая конфигурация, фольклор, художественный стиль.

**LEXICAL CONFIGURATIONS OF THE QURAN:  
KAABA TOPONYM OR THEONYM?**

*Abstract.* This article discusses the theonyms of the Holy Quran, their place in linguistics, as well as the inclusion of the Kaaba in the list of theonyms or toponyms of the holy place. When analyzing this lexeme, examples are given from the verses of the Holy Quran in Uzbek and French.

*Keywords:* theonyms, Kaaba, toponyms, the Holy Quran, lexemes, linguopragmatics, speech configuration, folklore, artistic style.

**Kirish.** Barcha sohalarda bo'lgani kabi tilshunoslik ham jadal sur'atlar bilan rivojlanib, xorijiy tillarni o'rganishga hamda ularning muammolarini ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etishga bo'lgan qiziqish tobora ortmoqda. Har bir xalqning ma'naviy-marifiy, diniy-ijtimoiy sohaları kun sayin rivojlanib borar ekan, undagi til birliklari ham o'z shakl-u shamoyilini o'zgartirib boradi [1]. Bu jarayon olimlarni lingvopragmatik sohada tadqiqotlar olib borishga undaydi. Shunday muammolardan biri Qur'oni Karim teonimlarining nutqiy konfiguratsiyasidir. Tadqiqotimizning ushbu qismida bu masalaga atroflicha to'xtalib o'tishni lozim bildik.

Yer yuzining turli burchaklarida istiqomat etuvchi musulmon ummatni yagona qibla jamlaydi. Vatanlari, turgan joylari, ranglari, tillari, shakllari, jinslari, yoshlari, ijtimoiy holatlari turli-tuman bo'lishiga qaramay, namoz paytida barchalari yagona qiblagacha yuz o'giradilar. Bir qiblagacha qarash ularning bir tan, bir jon ekanligining, maqsadlari, tutgan yo'llari bir ekanligining, Robbilari, kitoblari va Payg'ambarlari bir ekanligining ramzidir.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** O'zbek tilshunosligida diniy uslub hali butkul shakllanib bo'lmagan. Qorilar, eshonlar, taqvodorlar va masjid imomlarining nutqi diniy uslub nutqiga kiradi. Ularning nutqida Qur'oni Karim va Hadisi Sharifdan tashqari Alloh, payg'ambarlar nomlari, mo'min-muslimlar, g'arib-u miskinlar, diniy rivoyatlar, sahobalar, noiblar, avliyolar, shayx, orif, obid, oyat va suralardan parcha misollar yangrab turadi.

Turkiy teonimlar, ayniqsa uning o'ta ko'hna davrlardagi tarixi haqida G.P.Snesaryov, O.A.Suxareva, N.Direnkova, M.V.Stebleva, T.D.Bayaliyeva, N.F.Mokshin kabi olimlarning ishlarida uchraydigan ma'lumotlar qimmatlidir. Masalan, G.P.Snesaryovning maqolasida Araviya qabilalarining qadimiy ilohlari *al-Lot, al-Uzzo, Manot*; Yaman ilohlari *Vadd, Suva*; ko'hna tarixga mansub bo'lgan *Ramuza, Axraman, Axura-Mazda*, shuningdek mifik tasavvurlar bilan aloqador ajdarho, dev, devoh, pari, jinlar, ularning genezisi, etimologiyasi haqida fikr yuritilgan. Alloh (Xudo, Xudoy, Tangri, Yaratgan, Yazdon, iloh, ilohalar va bu tushunchalar bilan bog'liq atributlar haqida tarixiy, badiiy, etnografik, folklorshunoslik, mifologik, qisman

tilshunoslik fanlarida kuzatish olib borilsa-da, teonim, teonimiya tushunchasi, uning doirasiga kiradigan aniq lugʻaviy onomastik birliklar, ularning chegarasi va koʻlami yuzasidan hozircha izchil fikrlar bildirilganicha yoʻq. Islomning boshqa ramzlari kabi, ushbu ramz ham musulmonlarni boshqalardan ajratib turadi. Musulmon millati oʻziga mustaqil, Allohning yoʻlidan yurgan afzal millatdir. Shuning uchun har bir narsada uning mustaqil ekanligi bilinib turishi kerak. Zalolatda yurganlarga tobe boʻlib qolmaslik zarur.

Xalq folklorida va badiiy uslubda “*Tangri kechirsin, iloho joylari jannatda boʻlsin*”, “*Olloh panohida asrasin*” kabi birikmalar, hayratni bildiruvchi “*Yo tovba!, Yo parvardigor*”, oʻtinch maʼnosidagi murojaat soʻzlari “*Ey Ollohim, oʻzing sabr ber*”, “*Yo rabbim, meni avf et*”, “*Ey Ollohim doʻzax oʻtidan qutqar*” kabi semantik-funksional nutqiy hosilalarni koʻplab uchratish mumkin. Masalan, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarida “*Yo parvardigor! Oxirzamon degani shumikan, mulla Fazliddin?*”, “*Yo tovba, bu yoqda Samarqand qoʻshni...*” kabi nutq birliklarida ayni shu holatlarni kuzatish mumkin.

Soʻzlashuv uslubi – bu uslubda koʻpincha adabiy til meʼyorlariga rioya qilinadi, nutq dialogik shaklda boʻlib ikki yoki undan ortiq shaxsning suhbatidan iboratdir. Koʻpincha ushbu uslub dialogik nutq uslubi deb ataladi. Turli uslubiy boʻyoqlar, tovush orttirilishi yoki aksincha, tushishi soʻzlashuv uslubiga xosdir: “*Obbo, hamma ishni doʻndiribsiz-da*”, “*Mazza qildik*”, “*Ketaqo-o-ol!*”, “*Olloh rahmatiga olibdi*”, “*Uni ham farishta deb boʻlmaydi*” gaplari fikrimizga misol boʻla oladi.

Iymon-eʼtiqod va iymonsizlik tushunchalari ziddiyatida “Insoniyat qadimgi davrlardan eʼtiboran Xudo degan Ilohiy kuchni oʻzi uchun kashf etganmi yoki Xudo inson degan mavjudot yoxud maxluqotni yaratib, olamni unga tuhfa etganmi?” degan savol atrofida bahsga kirishib kelmoqda va fikran bir-biriga qarama-qarshi dindor (ruhoni) hamda dinsiz (ateist)lar ikki qutbda boʻlinib, koʻp holatda murosasiz antagonistik jang olib bormoqda. Turli predmetlarga, mif va afsonalarga sigʻinish va ishonish orqali oʻz ilohiy qudrat oldida oʻzliklari muammolarini yechishda urinishgan [2].

Buddalar, ilohiy muqaddas sanalgan mif va afsonalardan ajralib chiqqan ikki diniy oqim, asosan, **nasroniy, xristian va musulmon** jamoalarining alohida ajralib chiqishi hamda shakllanishiga sabab boʻlgan. Diniy eʼtiqodlar ziddiyatida “ziyolilar, ruhoniylar va ateistlar” triadasi paydo boʻlib, ular oʻrtasida dunyoviy va diniy ilmlarni yoqlash bir-biri bilan murosa qilmay kelmoqda.

Diniy asoslarga koʻra inson Xudoni yaratmagan, Xudo insonni yaratgan. Bu borada muqaddas kitoblar guvohlik berib kelmoqda. Ammo diniy kitoblar tarkibi dunyoviy nuqtai nazardan hali kam oʻrganilgan. Biz mazkur ishda Qurʼoni Karimga lingvistik aspekt asosida murojaat qilishni maqsad qilin oldik. Oʻrganish obʼyektida teonimlar bilan toponimlarning kesishmasida oʻzaro yaqinlik va farqlar borligini qayd etishdan iborat.

Teonimiyada xususan, fransuz tili teonimiyasida estetik baholash mezon mavjud boʻlib u obyekt yoki hodisaning tashqi xususiyatlarini baholashni oʻz ichiga olgan **Injil** iboralaridan iborat. Estetik baholash ikkita katta qismga boʻlingan boʻlib, ular ijobiy va salbiy oʻlcham mezonlaridir. Bular oʻziga xos qolip va darajalarga ega boʻlgan konseptlardan iborat. Xususan, fransuz tili teonimiyasida estetik baholash mezon mavjud boʻlib u obyekt yoki hodisaning tashqi xususiyatlarini baholashni oʻz ichiga oladi.

Estetik baholash ikkita katta qismga boʻlingan boʻlib, ular ijobiy va salbiy baholash mezonlaridir. Birinchi qism Xudo, farishta va jannat komponentlaridan iborat [3]. **Farishta** teonimi insonlarga xush yoqadigan va insonlar tomonidan ijobiy maʼnoda qoʻllaniladigan leksik birlikdir. Arab tilidan ushbu soʻzga maʼnodosh boʻlgan **malak** leksemasi ham ijobiy maʼnoda shakllantirilgan soʻz sifatida iboralar tarkibida uchraydi va oʻzbek adabiy tilida faol qoʻllaniladi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida **Malak** soʻziga ham farishta deb taʼrif berilgan. Teonimlarni badiiy asarlar yordamidagi tadqiq etish masalalari juda katta ahamiyat kasb etadi. Tarjimadagi ikki noqardosh til urf-odatlarini hamda rasm-rusumlaridagi tafovutlar asosiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shunga qaramay, linvokorpusda bu borada arzirli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Kuzatishlarimiz natijasi shuni koʻrsatdiki, fransuz tilida **paradis “jannat”** soʻzi bilan juda koʻplab iboralar va ibratli soʻzlar mavjud. Va aynan ushbu soʻzning nutqda faol qoʻllanilishi mustaqillik davrida sezilarli darajada ortgan va xalqning Qurʼon oʻqib mutolla qilish darajasi ortgan.

Ikki til doirasida matnlarning diskurs tahlili ham juda katta ahamiyatga ega boʻlib, tarjima masalalarida juda koʻp muammolar kuzatilmoqda. Fransuz tilidagi diniy soʻzlarni tarjima qilishda ham baʼzi muammolar mavjud boʻlib, shu kungacha mazkur tilda darsliklar, masalan, lugʻatlar ilohiyot uchun maxsus nashr qilinmagan. Boshqa sohada oʻzga maʼnoga ega boʻlgan soʻz umuman diniy terminologiyada boshqa maʼnoga ega boʻlishi mumkin.

Teonimlardan diniy leksema, diniy toponimlarni farqlash muhimdir. Shulardan biri Kaʼba leksemasidir. Bu leksema toponimmi yoki teonim degan savol tugʻiladi.

Kaʼba (arabcha: الكعبة al-kaʼba) — kub shaklidagi yopiq bino boʻlib, Saudiya Arabistonining **Makka** shahridagi **Masjid al-Haram** masjidining ichida joylashgan. Masjid dastlabki Kaʼba atrofida bunyod etilgan.

Ka'ba Islom olamida eng muqaddas joy hisoblanadi. Birinchi marta Ka'bai muazzamani, *Odam Ato* (a.s.) yaratilishlaridan ikki ming yil oldin, Alloh taoloning amriga binoan, farishtalar bino qilgan. Ikkinchi marta **Ka'bai** muazzamani birinchi odam – Odam alayhissalom qurganlar. Uchinchi marta **Odam** alayhissalomning farzandlari (uchinchi o'g'illari Shis alayhissalom degan taxmin bor) tosh va loydan qurganlar. Keyin **Nuh** alayhissalom davrlarida butun dunyoni suv bosganda yo'qolgan. To'rtinchi bor Alloh taoloning amriga binoan Ibrohim alayhissalom o'g'illari Ismoil alayhissalom bilan **Ka'baning** oldingi asosini topib, o'shani ustidan qurganlar. Ibrohim alayhissalomdan keyin ham Ka'ba bir necha marta urush, olov, suv bosishi natijasida buzilib, qayta qurilgan. Qurilishda Ibrohim alayhissalom hozirda "*Maqomi Ibrohim*" deb ataladigan toshning ustiga chiqib ishlaganlar, shundan oyoqlarining izi qolgan ekan. Bu tosh avvallari Ka'bai muazzamaga tegib turgan ekan. Keyin Hazrati Umar roziyallohu anhu namoz o'qiyotganlarga va tavof qilayotganlarga xalaqit bermasin, deb chetroqqa oldirgan ekanlar. Hozirgi kunda shisha g'ilof ichida, yerdan balandroqda saqlanmoqda.

Ka'ba tarixini chetlab o'tish aslo mumkin emas. Manbalarda ta'kidlanishicha, Ka'ba – *qibla*, *Qiblai Olam* – musulmonlar namoz vaqtida yuzlanadigan joydir. Ka'ba butun dunyo musulmonlari uchun namoz vaqtida Qibla vazifasini o'taydi. Musulmonlar tarafidan amalga oshiriladigan **Haj** va **Umra Ka'ba** atrofida amalga oshiriladi. Ka'baning bir burchagidan Qora tosh joy olgan. Haj amallari paytida Ka'baning atrofida Tavof amali bajariladi. Musulmonlar rivoyatlarida Ka'ba Odam alayhissalom tomonidan qurilgani aytiladi. Qur'onda keltirilishicha esa, Ka'baga Ibrohim alayhissalom asos solgan. Yana Qur'onda aytilishicha, Ka'ba insoniyat tomonidan Allohga ibodat qilish uchun bunyod etilgan birinchi inshootdir. Ka'ba Saudiya Arabistonining Makka shahrida joylashgan bo'lib, "*Baytul Harom*" (Muqaddas uy), "*Baytulloh*" ("Allohning uyi"), "*Ka'bai muazzama*" (Hurmatli, e'zozli Ka'ba) deb ham yuritiladi. Uni ziyorat qilish — haj va umraning asosiy amallaridan biri.

Ka'ba Haram masjidining markazida joylashgan. Ka'badagi asosiy tavof qilinadigan narsa, yer yuzidagi odamlarga Alloh tomonidan yuborilgan, Alloh qudratining belgisi qora-qizg'ish tusdagi uch siniqdan iborat meteorit hisoblanadi. Bu toshda odam izlari ko'rinadi. "Qora tosh" yaqinida muqaddas *Zamzam* bulog'i bor. Ko'p asrlar guvohki, bu buloq Allohning sharofati bilan aslo to'xtamaydi.

Ka'ba islomdan ilgari ham arab qabilalarining muqaddas ibodatxonasi hisoblangan, unda qabila xudolarining 360 sanami saqlangan. Har yili arab qabilalari Ka'baga haj qilishga kelib turganlar. Haj qilish odati keyinchalik islomga ham o'tgan. Endi esa, musulmonlarning haj davridan tashqarida Ka'bani ziyorat qilish istagi shu darajada kuchliki, u muqaddas joyda ziyoratchilarnind aslo keti uzulmaydi [4].

Ka'ba ibodatxonasining qurilishi haqida turli rivoyatlar bor. Aytishlaricha, *Odam Ato Baytullohni* bunyod etgan, keyin uning o'g'li Shis qurgan. To'fon paytida Ka'ba havoga ko'tarib qo'yilgan. Keyin yana buzilgan. Ibrohim (alayhissalom) Makkaga o'z o'g'li *Ismoilni* olib kelganda **Alloh** unga Ka'ba poydevorini tiklashni buyurgan. Ibrohim Alloh amrini bajargan va Allohga sig'inuvchi barcha odamlarga uni ziyorat qilishni vasiyat etgan. Ka'baga keyin Makkaning jurhum, xuza, quraysh qabilalari navbatma-navbat qarab turishgan. Ka'ba bir necha bor sel va toshqinlardan zarar ko'rgan.

**Natijalar.** Rivoyat qilishlaricha, Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) bu yerda ta'mirlash ishlarida qatnashgan va o'sha vaqtda birinchi bor unga vahiy kelgan. Ka'ba **Yasrib** (*Madina*)da qibla deb e'lon qilingach (bungacha Quddusga qarab ibodat qilinar edi), uning ahamiyati juda oshib ketdi. Ka'ba islomning din sifatida shakllanishida katta rol o'ynadi. Ka'bani dinsizlardan ozod qilish va uni sanamlardan tozalash Muhammad sollallohu alayhi va sallamning zimmalariga tushdi, ungacha bu vazifani Ibrohim (alayhissalom) bajargan edilar. Muhammad sollallohu alayhi va sallam boshchiligidagi musulmonlar 629-yil Makkaga kichik haj qilishdi, 630-yil Makkani egallashdi va Ka'ba atrofidagi sanamlar, uning ichidagi **Xubal** deb atalgan butni, yozuvlarni yo'q qilishdi. Shu yili **Abu Bakr** (roziyallohu anhu) rahbarligida birinchi haqiqiy musulmon haji ado etildi.

Ammo uni birinchi bo'lib Odam alayhissalom qurgan degan fikr ko'proq, chunki Alloh taolo Qur'onda shunday degan:

بَنِيَّ طَهْرًا أَنْ إِسْمَاعِيلَ وَ إِبْرَاهِيمَ إِلَى وَعَهْدُنَا

Ma'nosi: " *Va uyimni (ya'ni Ka'bani) poklashni Ibrohim va Ismoilga (o'g'li Ibrohimga) topshirdik.* "(**Baqara, 125**).

Fransuzcha tarjimasi:

" [Et rappelle-toi], quand nous fîmes de la Maison un lieu de visite et un asile pour les gens - Adoptez donc pour lieu de prière, ce lieu où Ibrahim (Abraham) se tint debout -Et Nous confiâmes à Ibrahim (Abraham) et à Isma'îl (Ismaël) ceci: « Purifiez Ma Maison pour ceux qui tournent autour, y font retraite pieuse, s'y inclinent et s'y prosternent. » (**Al-Baqara, verset 125**). [5;1]

Ya'ni, Ka'ba *Ibrohim* (alayhissalom) payg'ambar tug'ilishidan oldin mavjud bo'lgan, lekin *Nuh* (alayhissalom) payg'ambar davrida sodir bo'lgan global toshqin paytida u ko'tarilgan va Qora tosh. *Abu Qubays* tog'ida yashiringan edi.

Xalifa *Umar* (roziyallohu anhu) davrida Ka'ba yonidagi uylar buzib tashlandi va uning atrofida Haram masjidi qurildi. 683-yilda Ka'bani umaviy qo'shinlari o'qqa tutdi. Keyin u qayta tiklanib, kengaytirildi. 929-yil Makkani qarmatlar bosib oldi va "qora tosh"ni olib ketishdi. Oradan 20-yil o'tgach, bu toshni qaytarib olishga muvaffaq bo'lindi. Asta-sekin Ka'ba tevaragida turli inshootlar, jumladan, asosiy musulmon mazhablarining minbarlari tiklandi. Ka'ba butun dunyo musulmonlarining eng muhim markazi va birligi ramzi bo'lib keldi, hozir ham shunday bo'lib turibdi. Islom dinidagi barcha oqimlar uning muqaddasligi va alohida rolini tan oladilar. Har yili dunyoning hamma chekkalaridan musulmonlar haj ibodatini ado etish uchun bu yerga keladilar.

1979 yili Ka'baga yangi eshik atrofiga Qur'oni karimning quyidagi oyati kalimasi o'yib yozilgan:

لِّلْعَالَمِينَ وَهَدَىٰ مَبَارَكًا بَيْتًا لِّذِي ٱللَّيْسِ وَضَعِ بَيْتِ ٱوَّلِ ٱنْ

**O'zbekcha tarjimasi:** *Albatta, odamlar (ibodati) uchun qurilgan birinchi Uy – Bakka (Makka)dagi muborak va olamlar uchun hidoyat (manbai) bo'lmish (Ka'ba)dir* (Oli Imron, 96).

**Fransuzcha tarjimasi:** *La première Maison qui a été édifée pour les gens, c'est bien celle de Bakka (la Mecque) bénie et une bonne direction pour l'univers* (Al-Imran, verset 96).

Alloh taolo ma'lum muddat qiblani Ka'badan Baytul Maqdisga ko'chirganining bir hikmati shudir. Bu amrga itoat etgan Payg'ambarimiz boshliq musulmonlar so'zsiz o'sha tomonga yuzlanib, namoz o'qidilar [5].

Odatdagidek, yahudiylar turli ig'volarni tarqata boshladilar. «Muhammadning dini haq bo'lsa, otobobolarining muqaddas uyi – Ka'baga qarab namoz o'qiyvermasdan, nima uchun bizning qiblamiz – Baytul Maqdisga qarab namoz o'qiydi? Bu ham bizning dinimiz uning dinidan afzal ekanligining dalilidir», deyishdi. Payg'ambar alayhissalom Allohning buyrug'ini bajaradilar, yahudiylarning gaplariga e'tibor bermadilar. Shu holda o'n olti oy yoki o'n yetti oy **Baytul Maqdisga** qarab namoz o'qildi.

So'ngra quyidagi oyat nozil bo'lib, qibla yana Ka'bai Muazzamaga qaratildi.

«Goho yuzingning osmonga tez-tez burilishini ko'rurimiz. Bas, albatta, seni o'zing rozi bo'lgan qiblaga yuzlantirurimiz. Yuzingni Masjidul Harom tomon bur. Qayerda bo'lsangiz ham, yuzingizni u tomon buring. Albatta, kitob berilganlar uning Robbilaridan bo'lgan haq ekanini bilurlar. Va Alloh ularning qilayotgan amallaridan g'ofil emasdir» («**Baqara**» surasi, 144-oyat).

Fransuz tilidagi tarjimasi: «*Certes nous te voyons tourner le visage en tous sens dans le ciel. Nous te faisons donc orienter vers une direction qui te plaît. Tourne donc ton visage vers la Mosquée sacrée. Où que vous soyez, tournez-y vos visages. Certes, ceux à qui le Livre a été donné savent bien que c'est la vérité venue de leur Seigneur. Et Allah n'est pas inattentif à ce qu'ils font.*» (**Al-Baqara**, verset 144).

Yana bir oyatda: «**Goho yuzingning osmonga tez-tez burilishini ko'rurimiz**», deyilgan. Uning tarjimasi shunday:

«*Certes nous te voyons tourner le visage en tous sens dans le ciel.*»

Albatta, Alloh taolo bu ishni ko'rib-bilib turgani uchun vaqti-soati kelganda Ka'baning qibla bo'lganini e'lon etdi va Qur'onda shunday sura nozil bo'ldi:

«Bas, albatta, seni o'zing rozi bo'lgan qiblaga yuzlantirurimiz. Yuzingni Masjidul Harom tomon bur. Qayerda bo'lsangiz ham, yuzingizni u tomon buring».

Fransuzcha tarjimasi: «*Nous te faisons donc orienter vers une direction qui te plaît. Tourne donc ton visage vers la Mosquée sacrée. Où que vous soyez, tournez-y vos visages.*»

Maqsad Ka'ba bo'lsa ham, Masjidul Harom, ya'ni Ka'bai **Muazzama** atrofidagi masjid zikr qilinganidan ulamolar «Namoz o'quvchi kishi aynan Ka'baga qarashi shart emas, balki o'sha tomonga qarasa ham joiz», deganlar. [6]

**Oyati karima** (*Qur'oni Karim*)ning avvalidagi jumlaning vasfiga ko'ra, Payg'ambar alayhissolatu vassalom **Ka'bai Muazzamaning** qibla qilib berilishini kutib yurganlar. Allohning O'zi u kishining Ka'baga nisbatan cheksiz muhabbatlarini, buning ustiga, yahudiylarning ortiqcha gap-so'zlari va boshqa omillar ta'sirida osmonga tez-tez qarab, «Shoyad vahiy kelib, qiblaning o'zgarganidan xabar bersa», deya kutishlarini ko'rib turganligi bayon etilmoqda. Endi biz shuni tilshunos sifatida o'ylab ko'raylik. Biz shunday muqaddas joyni bor yo'g'i oddiy bir ilmiy termin bilan toponim deya olamizmi? Aslo mumkin emas, chunki bu shunchaki joy nomi emas, bu musulmon olami va e'tiqodi uchun muqaddas joy bo'lgani uchun teonimlarning shohsuppasidan o'rin oladigan, tavof qilib farz amallarini bajaradigan **Qiblai Olam** hisoblanadi. Bu shunchaki Masjidi Haram ichida joylashgan oddiy bino emas [7].

Qur'oni Karimda *Anbiyo* surasida *Yunus* alayhissalom shu laqab bilan tilga olingan) misoli o'tiradi. Xilvatda o'zini odamlarga yaqin tutib, Xizrga o'zini do'st tutadi. Be'mani xayollari bilan o'zlarini so'filylik



kayfiyatiga soladi. Shu bilan mamlakat podshosi va lashkarboshisidan hadya va tuhfar kutadi. Kent va suyurg'ol bag'ishlasa, nafsi orom, shodlik topadi. Bunday shayxlarni Navoiy yomonlarning yomoni deb ataydi: Kimki yo'q andin yomon, andin yomon.

**Xulosa.** Teonimlar atrofidagi leksemalar, nutqiy konfiguratsiyalar, konstruktiv nutqiy qurilmalar o'z-o'zidan paydo bo'lgan hosilalar emas. Asrlar osha umumbashariy e'tiqod, madaniyat, kerak bo'lsa san'at durdonalaridir. Biz har qanday holarda ham o'zimizning ilmiy munosabatimizni bunday muqaddas joylarga nisbatan moslashtirishga majburlamiz. Ilmiy yondashuv zaminida Alloh tarannum etiladigan muqaddas joylarga shunchaki toponimik munosabatda bo'lishimiz, e'tiqodimizga xiyonatdir. Teonimlar tildagi juda qadimiy lug'aviy birliklar bo'lib, ularning paydo bo'lish davrlari insoniyatning o'ta ko'hna dunyodagi diniy qarashlari, animizm, totemizm, tabu, evfemizm singari tasavvurlari bilan bog'liqdir. Ushbu leksikaning paydo bo'lishi ko'p xudolilik va bir xudolilik davrlarini o'z boshidan kechirgan.

Teonimiya doirasi nihoyatda keng bo'lib, diniy mazmunli tabarruk, muqaddas deb bilinuvchi shaxslar, avliyolar, o'tmishda sig'inish obyekti bo'lgan real va noreal (xayoliy, mifologik) subyektlar, figuralar nomi ham lingvistikada kiritilmoqda va ular ko'pincha agnonim termini bilan yuritilmoqda.

### ADABIYOTLAR:

1. Bobokalonov R. *Til, milliy ruh va ma'naviyat. Ilmiy-ommabop risola BuxDU Ilmiy-texnikaviy kengashi, 28.12.2019, 2-son yig'ilishi qarori. Toshkent – 2020.*
2. Bobokalonov R. *Nafsga qarshi isyon. BuxDU Ilmiy-texnikaviy kengashi, 28.12.2019, 2-son yig'ilishi qarori. Toshkent – 2020.*
3. <https://fayllar.org/adabiy-til-uslublari>.
4. *O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil*
5. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/k/kaba/>
6. *Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining «Hadis va Hayot» deb nomlangan kitoblarining to'plami. (34 juz, 32 jild) 2023 yil*
7. *Shokirovna, S. M. (2023). The Use of Dialecticisms in the Language of Uzbek Cinema Films. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 525-530.*
8. <https://fayllar.org/ada-biy-til-uslublari.html> 34Armstrong K. *The history of God. London, 2012. – P.12.*